




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Toshkent viloyati bo'yicha 2022- yil yanvar-fevral oyida chakana savdo tovar aylanmasi **4008,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **17,7%**ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1111,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **2,7** m.), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2897,7** mlrd. so'mni (**96,8%**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **299,4** mlrd. so'mni (**112,2 %**) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Toshkent viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4008,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **117,7** %ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **72,3** % va yirik korxonalar hissasiga **27,7** % to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH


Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Zangiota tumani **21,2** % ulush bilan **850,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Toshkent viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Ohangaron tumani **0,9** % ulush bilan **36,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra **2897,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **3,2%**ga kamaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi hududlar kesimida taqqoslanganda, bu ko'rsatkich Ohangaron (99,0%), Oqqo'rg'on (98,2%) va Parkent (97,5%) tumanlari hamda Yangiyo'l (95,5 %) shahrida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan viloyatning aksariyat hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar, Nurafshon (153,3 %) va Angren (150,1%) shaharlarida, Zangiota (144,4%) tumanida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	4008,7	117,7	1111,0	268,1	2897,7	96,8
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	247,1	153,3	167,7	2,2 m	79,4	90,4
Olmalik	274,2	105,9	39,9	106,7	234,3	105,7
Angren	307,6	150,1	143,4	3,8 m	164,2	98,0
Bekobod	171,8	117,7	46,3	173,0	125,5	105,2
Ohangaron	56,6	111,4	5,2	106,1	51,4	111,9
Chirchiq	204,1	114,7	67,7	3,2 m	136,4	86,7
Yangiyo'l	222,1	112,3	10,1	148,2	212,0	111,0
<i>Tumanlar:</i>					0,0	
Oqqo'rg'on	130,5	101,5	2,3	119,6	128,2	101,2
Ohangaron	36,5	101,8	0,4	12,7	36,1	109,3
Bekobod	82,9	104,8	2,7	55,7	80,2	107,9
Bo'stonliq	205,6	100,9	31,6	44,4	174,0	131,2
Bo'ka	105,4	100,7	3,7	110,3	101,7	100,4
Quyichirchiq	70,3	104,5	2,6	2,4 m	67,7	102,2
Zangiota	850,6	144,4	436,6	24 m	414,0	72,5
Yuqori Chirchiq	112,7	103,8	8,8	2,4 m	103,9	99,0
Qibray	229,4	100,9	24,9	142,2	204,5	97,5
Parkent	134,2	102,3	3,3	141,9	130,9	101,6
Piskent	77,7	108,4	6,7	2,1 m	71,0	103,6
O'rta Chirchiq	44,9	103,4	12,5	196,9	32,4	87,4
Chinoz	154,1	111,9	43,6	161,5	110,5	99,8
Yangiyo'l	115,0	100,3	11,0	2 m	104,0	95,2
Toshkent	175,4	105,3	40,0	103,8	135,4	105,8



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **2,6 m.** ga o'sdi va **1111,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **27,7%** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2897,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **3,2** %ga kamaydi. Viloyat miqosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **72,3** %ni tashkil etdi.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
TUMAN VA SHAHARLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ohangaron (99,0 %), Oqqo'rg'on (98,2 %), Parkent (97,5 %), Bekobod (96,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 27,7 %ni tashkil etib, eng katta ulush Nurafshon (67,9 %) shahri va Zangiota (51,3 %) tumanida kuzatildi.






**TOSHKENT VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022- yil yanvar-fevral oylarida o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1374,4** ming so'mni (2021- yilning mos davriga nisbatan **19,0** %ga o'sdi).

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Zangiota (5267,1 ming so'm) tuman va Nurafshon (4743,0 ming so'm) shahar hissasiga to'g'ri keldi.




	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar-fevralga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	1 374,4	119,0
<i>Shaharlar:</i>		
Nurafshon	4 743,0	150,4
Olmaliq	2 041,4	104,3
Angren	1 594,1	147,6
Bekobod	1 760,4	116,2
Ohangaron	1 429,6	108,0
Chirchiq	1 246,3	112,1
Yangiyo'l	3 553,0	109,8
<i>Tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	1 215,8	100,0
Ohangaron	373,9	100,3
Bekobod	515,7	103,2
Bo'stonliq	1 195,3	99,7
Bo'ka	818,7	99,0
Quyichirchiq	633,2	102,6
Zangiota	5 267,1	173,7
Yuqori Chirchiq	835,4	105,5
Qibray	1 340,9	118,7
Parkent	844,1	100,4
Piskent	755,3	106,9
O'rta Chirchiq	339,2	109,8
Chinoz	1 118,9	109,6
Yangiyo'l	543,8	98,4
Toshkent	945,8	103,3



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Tohkent viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **299,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **12,2** %ga o'sdi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **117,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,2**%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **182,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **115,0** %) tashkil etdi.

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar





**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

**TOSHKENT VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI**
2022- yil yanvar-fevral

2022- yilning yanvar-fevral oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **117,3** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **182,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	299,4	112,2	117,3	108,2	182,1	115,0
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	1,2	3,2 m.	1,2	3,2 m.	0,0	-
Olmaliq	19,4	186,1	8,3	191,6	11,1	182,2
Angren	14,1	158,9	14,1	158,9	0,0	-
Bekobod	24,1	2,0 m.	24,1	2,0 m.	0,0	-
Ohangaron	4,6	150,5	4,6	150,5	0,0	-
Chirchiq	5,4	64,3	5,4	64,3	0,0	-
Yangiyo'l	77,8	133,8	33,5	103,8	44,3	171,1
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	13,5	90,5	4,7	93,7	8,8	88,9
Ohangaron	0,0	-	0,0	-	0,0	-
Bekobod	20,6	139,1	0,0	-	20,6	139,1
Bo'stonliq	39,5	2,1 m.	1,4	157,6	38,1	2,1 m.
Bo'ka	5,9	28,3	0,0	0,0	5,9	49,8
Quyichirchiq	9,8	100,6	1,7	61,7	8,1	115,8
Zangiota	8,1	80,9	0,4	28,1	7,7	89,1
Yuqori Chirchiq	1,6	50,2	1,6	50,2	0,0	-
Qibray	11,9	61,6	0,0	-	11,9	61,6
Parkent	10,6	34,6	4,5	55,0	6,1	27,1
Piskent	16,44	116,4	4,30	124,8	12,10	113,7
O'rta Chirchiq	0,0	-	0,0	-	0,0	-
Chinoz	10,5	197,2	5,7	144,7	4,8	3,4 m.
Yangiyo'l	0,0	-	0,0	-	0,0	-
Toshkent	4,4	99,2	1,8	108,9	2,6	93,5



**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**

**TOSHKENT VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI**
2021- yil yanvar-fevral



2,8
mlrd. so'm

Tuzlamalar



56,8
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



6,1
mlrd. so'm

**Qurilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)

12,9
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



3,5
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

5,1
mlrd. so'm



Tuxum

10,2
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh, loviya, no'xat, guruch va boshqalar)

2,2
mlrd. so'm



Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-hashaklar

1,6
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)

3,8
mlrd. so'm



Ziravorlar

12,3
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha tuman va shaharlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **117,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**56,8** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI**

2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha tuman va shaharlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **182,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **114,6** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **34,0** mlrd. so'mni, otlar **33,1** mlrd. so'mni, parrandalar **0,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,7 %**ni tashkil etib, **108,9** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan **5,1 %**ga o'sdi. Bunda jami savdo aylanmasining **81,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	108,9	105,1	20,7	93,8	88,2	108,1
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	5,3	108,6	-	-	5,3	108,6
Olmaliq	20,9	91,1	14,9	85,6	6,0	107,9
Angren	8,2	108,3	-	-	8,2	108,3
Bekobod	3,9	108,4	-	-	3,9	108,4
Ohangaron	5,4	114,8	3,7	118,2	1,7	108,0
Chirchiq	13,8	106,7	1,1	84,8	12,7	109,1
Yangiyo'l	4,3	107,1	-	-	4,3	107,1
<i>tumanlar:</i>					0,0	
Oqqo'rg'on	3,6	103,8	-	-	3,6	103,8
Ohangaron	1,2	107,0	-	-	1,2	107,0
Bekobod	1,0	106,5	-	-	1,0	106,5
Bo'stonliq	4,6	133,7	1,0	732,5	3,6	108,1
Bo'ka	1,5	97,0	-	-	1,5	107,4
Quy Chirchiq	0,9	107,0	-	-	0,9	107,0
Zangiota	5,0	109,2	0,0	-	5,0	108,7
Yuqori Chirchiq	3,1	108,7	-	-	3,1	108,7
Qibray	12,5	108,9	-	-	12,5	108,9
Parkent	2,9	107,7	-	-	2,9	107,7
Piskent	1,2	107,0	-	-	1,2	107,0
O'rta Chirchiq	1,3	108,3	-	-	1,3	108,3
Chinoz	1,3	107,8	-	-	1,3	107,8
Yangiyo'l	3,3	106,6	-	-	3,3	106,6
Toshkent	3,7	108,5	-	-	3,7	108,5




TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY
OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

TOSHKENT VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2022- yil yanvar-fevral

2021- yil yanvar-
fevral

2022- yil
yanvar-fevral



2021- yil yanvar-fevral oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi ko'paygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **108,9** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 98,4%) va mulkchilik shakllari bo'yicha **108,7**mlrd. so'm nodavlat mulkiga hamda **0,2** mlrd. so'm davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent viloyati	108,9	100,0	108,7	98,4	0,2	1,6
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	5,3	4,9	5,4	-	-	-
Olmalik	20,9	19,2	21,0	-	-	-
Angren	8,2	7,5	8,2	-	-	-
Bekobod	3,9	3,6	3,9	-	-	-
Ohangaron	5,4	5,0	5,4	-	-	-
Chirchiq	13,8	12,7	13,6	98,4	0,2	1,6
Yangiyo'l	4,3	3,9	4,3	-	-	-
<i>Tumanlar:</i>		0,0				
Oqqo'rg'on	3,6	3,3	3,6	-	-	-
Ohangaron	1,2	1,1	1,2	-	-	-
Bekobod	1,0	0,9	1,0	-	-	-
Bo'stonliq	4,6	4,2	4,6	-	-	-
Bo'ka	1,5	1,4	1,5	-	-	-
Quy Chirchiq	0,9	0,8	0,9	-	-	-
Zangiota	5,0	4,6	5,0	-	-	-
Yuqori Chirchiq	3,1	2,8	3,1	-	-	-
Qibray	12,5	11,5	12,5	-	-	-
Parkent	2,9	2,7	2,9	-	-	-
Piskent	1,2	1,1	1,2	-	-	-
O'rt Chirchiq	1,3	1,2	1,3	-	-	-
Chinoz	1,3	1,2	1,3	-	-	-
Yangiyo'l	3,3	3,0	3,3	-	-	-
Toshkent	3,7	3,4	3,7	-	-	-



ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Toshkent viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1338.9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **3.4** %ga o'sdi. Shu jumladan, kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **932.1** mlrd. so'mni (8,4 %ga o'sdi) tashkil etdi. Ushbu sektor jami viloyat ulgurji savdo tovar aylanmasida **69.6** % ulushni tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik biznes

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Zangiota tumani (118,0 %), Angren shahar (116,4 %) va Ohangaron shahrida (112,4 %) kuzatildi.


Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- fevral-oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- fevral-oyiga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral- oyiga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	1338,9	103,4	406,8	93,6	932,1	108,4
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon sh.	82,5	111,4	31,9	187,6	50,6	88,7
Olmaliq sh.	37,4	105,7	11,5	67,8	25,9	140,8
Angren sh.	40,4	116,4	11,9	-	28,5	82,1
Bekobod sh.	16,2	110,1	0,2	-	16,0	108,7
Ohangaron sh.	42,3	112,4	27,0	136,2	15,3	86,0
Chirchiq sh.	22,6	110,9	7,6	7,2 m.	15,0	77,6
Yangiyo'l sh.	9,5	108,3	0,0	-	9,5	108,3
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	7,3	108,7	0,0	-	7,3	108,5
Ohangaron	13,0	62,3	0,1	0,5	12,9	176,4
Bekobod	11,0	94,5	1,2	45,4	9,8	108,3
Bo'stonliq	72,1	94,2	35,0	78,1	37,1	117,1
Bo'ka	7,1	108,3	0,0	0,0	7,1	108,4
Quy Chirchiq	16,8	97,6	0,0	1,8	16,8	108,6
Zangiota	388,3	118,0	36,7	38,1 m.	351,6	107,2
Yuqori Chirchiq	35,0	107,8	0,3	46,1	34,7	108,8
Qibray	282,0	103,2	220,1	102,0	61,9	107,9
Parkent	14,6	108,5	0,0	-	14,6	108,5
Piskent	4,4	108,0	0,0	116,5	4,4	108,0
O'rta Chirchiq	49,9	81,8	21,6	54,8	28,3	131,3
Chinoz	39,7	64,5	0,5	1,3	39,2	182,9
Yangiyo'l	14,5	109,3	0,1	9,1 m.	14,4	108,5
Toshkent	132,3	93,7	1,1	5,4	131,2	108,6



**YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR
AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, **1338,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan **3,4** %ga o'sdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi hududlar kesimida taqqoslanganda, bu ko'rsatkich Yangiyo'l shahrida (100 %) hamda Bo'ka va Parkent (100 %) tumanlarida yuqori bo'ldi.



Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (71) 202-86-59